

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON
"MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"
AMIR TEMUR DAVRIDA QONUN USTUVORLIGI

Jizzax viloyati Forish tumani
21-umumi o'rta ta'lim maktabi
Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi
Egamberdiyeva Madina Abduhoshim qizi

Annontatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davrida qonun ustuvorligi haqida qisqacha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, madaniy hayot, O'rta osiyo, Tarix, davlat, tamoyil.

Ichki ishlar organlari mansabdorlari yasag'liq, deb atalgan va ular davlat va jamiyatning tinchligini saqlashga mas'ul bo'lgan.

Huquqni muhofaza etuvchi tarkiblardan yana biri shixnalar deb atalgan va ular harbiy ma'murlar sifatida shaharlardagi tinchlikni saqlashga mas'ul bo'lgan.

Amir Temur davrida qurchi deb atalgan mansabdorlar davlatning qurol-yaroqlarini avaylab-asragan, ularning qayerga va kim uchun ishlatilayotganligini nazorat qilgan, podshoh saroyini qo'riqlashgan.



INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON

"MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"

Huquqni muhofaza etuvchi organlar ixtisoslashgan. Ular kunduzgi, tungi hamda fuqarolik va harbiy bo‘linmalarga ajratilgan. Shuningdek, har bir huquqni muhofaza etuvchi organlar o‘z ma’lumotlarini sultanat markaziga yetkazgan. Davlat siri bilan bog‘liq masalalar maxfiy kengashlarda, ikkinchi darajali masalalar saroyning ochiq kengashlarida ko‘rib chiqilgan, hududlardagi mavjud ahvolga monand chora-tadbirlar ko‘rilgan.

Huquqni muhofaza etish ishlari bilan nafaqat maxsus organlar, balki har bir hududning ma’murlari ham shug‘ullangan. Ularning barchasi davlat va fuqarolarning tinchlik, xotirjamligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan. Ma’muriy tartibdagi kichik huquqbazarliklarni jazolashgan. Agarda davlatga, shaxsga, hayotga va sog‘liqqa qarshi jiddiy jinoyatlar sodir etilsa, ular tegishli qoziliklarda ko‘rilgan hamda munosib jazolar tayinlangan.

Sohibqiron davlatining majburlov funksiyasini tashkil etishdan asosiy maqsadi ommani qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, jinoyatlarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarga muqarrar ravishda jazo tayinlash, davlat va jamiyatning tinchligi hamda xotirjamligini saqlash bo‘lgan. Bu davrda huquqbazarlik va jinoyatlarni ochishda haqiqatni aniqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur o‘z tuzuklarida bu haqda alohida to‘xtaladi:

"Buyurdimki, g‘arazgo‘y, tuhmatchi va nafsi buzuq kishilarning tuhmat so‘zlari bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqt birovning gunohi to‘rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolansin".

Davlatning majburlov kuchini saqlab turishda sudlar katta ahamiyat kasb etgan. Sudlar ixtisoslashgan bo‘lib, ularning uch xil turi mavjud edi. Birinchisi, lashkar qozisi. Bu qozilik harbiy masalalarga oid jinoyat va jazo masalalarini ko‘rgan. Ikkinchisi, shariat qozisi bo‘lib, u shariat bilan bog‘liq jinoyat va nizolarni ko‘rib chiqqan. Uchinchi qozilik dunyoviy-fuqarolik va davlatga tegishli bo‘lgan masalalarni – o‘g‘irlik, moliyaviy va ma’muriy sohalarga oid ishlarni ko‘rgan.



INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON

"MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"

Ushbu qoziliklarning har birining aniq va alohida vazifalari izchil belgilangan. Sudlar faoliyati haqidagi barcha ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri devonga – shaxsan Sohibqironga uzluksiz hisobot berib turgan va sud-huquq tizimi qat'iy qonuniylik vaadolat tamoyiliga asoslangan.

Adolat va qonun ustuvorligi tamoyili nafaqat mamlakatda, xalqaro munosabatlarda ham bosh mezon bo'lgan. Bu haqda Sharofiddin Ali Yazdiy shunday ma'lumot keltiradi: "Viloyatlarni zolimlarning eliklaridin qutqarib, adlu ehson bila orosta qildi. Va aning adlidin andoq bo'ldikim, agar birov bir tabak oltun yo kumush boshiga qo'yub yalg'uz sahroda Botardin Xovarg'acha borgay, hech kishi anga tik boqa olmas erdi. Ammo ul holda ko'b yerkarni talab asiru toroj qildi zarurat jihatidankim, agar andoq qilmasa erdi, olam nizom topmas erdi".

Sharofiddin Ali Yazdiyning fikricha, agar Sohibqiron qattiqqo'l siyosat yuritmasa va beboshlarni jazolamasa, olamda tartib o'rnatib bo'lmashdi. Zo'ravonlikka qarshi davlatning kuch ishlatmog'i shart. Shundaginaadolat va qonun ustvorligiga erishish mumkin.

Shuningdek, davlatda o'g'irlik, zo'ravonlik, sharob ichish, zino va boshqa jinoyatlar uchun eng og'ir jazolar tayinlangan. Akademik I.Mo'minov bu haqda shunday ta'kidlaydi: "Sohibqiron yozishmalaridan anglanishicha, sultanatda vaqtivaqtib bilan so'roq va taftishlar o'tkazib turilgan. O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik og'ir gunoh hisoblanib, bunga yo'l qo'ygan kishilar qattiq jazolangan".

Amir Temur va temuriylar davridagi majburlov apparatining tarbiyaviy kuchi shundaki, jazolar xalqdan yashirinchayemas, ochiqchasiga, xalq gavjum bo'lgan maydonlarda ijro etilgan.

Sohibqiron bir so'zida shunday deydi: "Adolat va insof bilan Tangri bandalarini o'zimdan rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylargain'omlar ularshdim. Zolimga qarshi mazlum dodiga yetdim".

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON
"MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"**

Foydalaniman adabiyotlar:

Maktab darsliklari(barcha sinflar 7-11 sinf).

Tarix fani qo'llanma

<http://staff.tiiame.uz>.

